

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2024

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдйбоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети


Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

1. Nodira Babadjanova O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA IJTIMOIIY BARQARORLIK VA MAMLUKAT TARAQQIYOTINI TA‘MINLASHDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIIY BAG‘RIKENGLIK – MUHIM OMIL.....	5
2. Laylo Begimqulova TEMURIY MALIKALARINING KELIB CHIQISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Saroy Mulk xonim va Xadicha begim misolida).....	13
3. Abduvali Berdiyev O‘ZBEK XONLIKLARINING ERON, AFG‘ONISTON, TURKIYA VA HINDISTON DAVLATLARI BILAN O‘ZARO ELCHILIK ALOQALARI VA UNDAN KO‘ZLANGAN IQTISODIIY - SIYOSIIY MAQSADLAR.....	18
4. Alisher Jalilov SIYOSIIY ELITANING TURKISTONNI MILLIIY-HUDUDIIY CHEGARALANISHIGA MUNOSABATI VA O‘ZBEKISTON SSRning TASHKIL TOPISHI.....	27
5. Бахром Джалолов СОВЕТ ХУКУМАТИНИНГ БОЛАЛАРНИ ХУҚУҚИЙ ХИМОЯЛАШ ТИЗИМИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР.....	33
6. Sherzod Djurakulov САМАРҚАНД МУЗОФОТИНИНГ ЮҚОРИ ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ ЁДГОРЛИКЛАРИ.....	39
7. Саховат Захидова ХОЖАГОНИЙЯ-НАҚШБАНДИЙЯ ТАРИҚАТИ “ХИМОЙАТ” ТИЗИМИНИНГ СЎНГГИ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ИЖТИМОИЙ СИЁСАТИДАГИ ЎРНИ.....	44
8. Икрамжон Исмаилов ЎЗБЕКISTON ЁШЛАРИНИ ХОРИЖДА ТАЪЛИМ ОЛИШЛАРИДА ДАВЛАТНИНГ РОЛИ.....	49
9. Энажон Нишанбаева ИЖТИМОИЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ТАДРИЖИЙ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ (ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ МИСОЛИДА).....	57
10. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТЛИК АДАБИЁТ ВА САНЪАТ НАМОЁНДАЛАРИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	63
11. Gulxayo Xasanboyeva O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING RIVOJLANISHI, TARMOQDAGI ISLOHOTLAR.....	69
12. Рашид Холмуродов ТАРИХЧИЛАР ТОМОНIDАН O‘LKAMIZ ETNOGRAFIYASI VA ETNIK TARIXINING O‘RGANILISHI.....	73



Alisher Xudoyberdiyevich Jalilov,
Navoiy davlat universiteti
tayanch doktoranti

SIYOSIY ELITANING TURKISTONNI MILLIY-HUDUDIIY CHEGARALANISHIGA MUNOSABATI VA O'ZBEKISTON SSRning TASHKIL TOPISHI

For citation: Alisher Kh. Jalilov. THE ATTITUDE OF THE POLITICAL ELITE TOWARDS THE NATIONAL-TERRITORIAL BORDERS OF TURKESTAN AND THE ORGANIZATION OF THE UZBEKISTAN SSR. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 12, pp.27-32

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14497508>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola siyosiy elitaning Turkistonni milliy-hududiy chegaralanishiga munosabati hamda O'zbekiston SSRning tashkil topishi masalalari o'rganilgan. Milliy-hududiy chegaralanish masalasi o'rta qo'yilgach mahalliy elitaning bolsheviklarga turli muammolar yuzasidan e'tirozlari hamda hudud talashlar bilan bog'liq bazi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Milliy hududiy chegaralanish, kommunistik partiya, siyosiy elita, nomenklatura, milliy siyosat, totalitar, sovet, avtonomiya, muxtoriyat, partiya, bolshevik.

Алишер Худойбердиевич Джалилов,
Навоийский государственный
университет докторанта

ОТНОШЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЭЛИТЫ К НАЦИОНАЛЬНО- ТЕРРИТОРИАЛЬНЫМ ГРАНИЦАМ ТУРКЕСТАНИ И ОРГАНИЗАЦИИ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается отношение политической элиты к национально-территориальному разграничению Туркестана и образованию Узбекской ССР. При постановке вопроса о национально-территориальном размежевании были проанализированы возражения местной элиты большевикам по различным вопросам и некоторым вопросам, связанным с территориальными спорами.

Ключевые слова: Национально-территориальное разграничение, коммунистическая партия, политическая элита, номенклатура, национальная политика, тоталитарный, Советский, автономия, автономия, партия, большевик.

Alisher Kh. Jalilov,
Navoi State University
Doctoral student

THE ATTITUDE OF THE POLITICAL ELITE TOWARDS THE NATIONAL-TERRITORIAL BORDERS OF TURKESTAN AND THE ORGANIZATION OF THE UZBEKISTAN SSR

ABSTRACT

This article examines the attitude of the political elite to the national-territorial delimitation of Turkestan and the formation of the Uzbek SSR. When posing the question of national-territorial delimitation, the objections of the local elite to the Bolsheviks on various issues and some issues related to territorial disputes were analyzed.

Index Terms: National-territorial delimitation, communist party, political elite, nomenclature, national policy, totalitarian, Soviet, autonomy, party, Bolshevik.

Dolzarbliqi: Qadimdan Turkiston mintaqasida istiqomat qilib kelgan turkiy xalqlarning turmush tarzi va anʼanalari bir-biriga juda yaqin boʻlgan. Ushbu xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirib turuvchi omillarga din, til, madaniyat, xoʻjalik, anʼana, qadriyatlarining mushtarakligi hisoblangan. Rossiya imperiyasining mustamlakachilikdagi merosxoʻri boʻlgan sovet davlati Turkiston mintaqasini boʻlib tashlab, uni idora qilishni ixtiyor qildi.

Kommunistik partiya va sovet hukumati Turkistonni milliy-hududiy chegaralanish hayotiy zarurat ekanligiga xalqni ishontirishga urindilar. Ular Turkiston xalqlari uzoq vaqt Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati ostida ezilgaligi va bundan keyin ushbu millatlar oʻz taqdirlarini oʻzlari hal qilishlari lozimligi toʻgʻrisida gapira boshladilar. Davriy matbuotda bu haqida shunday soʻzlar keltiriladi: Bugungi kunda Turkistonga koʻz olaytirib turgan dushmanlarni tugatib siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga yuz qoʻygan bir vaqtda milliy chegaralarga boʻlish masalasi qoʻzgʻalishi matlub boʻlgan bir masaladirkim buni ijrosi Oʻrta Osiyoda yashagan millatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan koʻtarishlariga keng maydon hozirlaydir [1].

Metodlar va oʻrganilganlik darajasi.

Tadqiqotda tarixiy metodlar tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Milliy-hududiy chegaralanishiga munosabati va Oʻzbekiston SSRning tashkil topishi bilan bogʻliq masalalar oʻzbekistonlik olimlar R.Shamsutdinov (2016), Q.Rajabov (2019), B.Rasulov (2012), B.Xasanov (2014), A.Ermetov (2018), O.Rashidov (2018) va boshqalarning qator asarlari va maqolalarida oʻz aksini topgan.

Tadqiqot natijalari.

1920-yil boshlarida Turkkomissiya raisi Ya.Rudzutak tomonidan Turkistonni boʻlib tashlash va til belgisiga qarab muxtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasi qoʻyildi. Bu taklif bolsheviklar yetakchisi V.I.Lenin tomonidan qoʻllab-quvvatlanib, u Turkiston oʻlkasining “Uzbekiya, Kirgiziya, Turkmaniya”ga boʻlingan kartasini tuzish haqida koʻrsatma berdi [2].

Markazning yuqori siyosiy rahbarlari uchun Turkistonni boʻlib yuborish, uni yagona davlat tuzilmasi sifatida yoʻq qilish gʻoyasi ustivor boʻlib qoldi. U Turkistonni saqlab qolish oʻzining imperiyacha maqsadlariga xavf tugʻdiradi deb hisoblardi, chunki Turkiston unda yashovchi barcha xalqlar ongida ularning tarixiy Vatani ramzi sifatida tushunilardi, uning mustaqilligi va ozodligi uchun kurashda doimo birlashtiruvchi taʼsirchan omil boʻlib kelgan edi. 1920-yil 20-iyunda RKP (b) MK Siyosiy byurosi majlisida Turkiston masalalari yuzasidan qabul qilingan toʻrtta qaror keyinchalik “RKP(b) MKning Turkistondagi asosiy vazifalari toʻgʻrisida”, degan umumiy nom bilan mashhur boʻlib, alohida bandida Turkiston ASSR MIKga “Turkistonning maʼmuriy okruglarini uning milliy tarkibiga muvofiq qayta taqsimlashga kirishish” topshirilgan edi. “Turkistonni milliy avtonom viloyatlar (respublikalar)ga boʻlishni darhol amalga oshirib boʻlmaydi, - deb taʼkidlagan edi Turkiston komissiyasi aʼzosi G.Safarov RKP (b) MKga yoʻllagan maktubida, - biroq u yaqin oradigi davr uchun haqiqiy yoʻl-yoʻriq sifatida qabul qilinishi lozim” [3].

Shu tariqa, RSFSR tarkibiga kirgan Turkiston Avtonom Sovet Respublikasini yangidan chegaralash haqidagi bolsheviklar gʻoyasi XX asr 20-yillari oʻrtalariga kelib, ancha keng miqyos kasb etgan vazifaga aylandi. Milliy-hududiy chegaralanishga faqat Turkiston ASSRdagina emas, balki BXSr va XXSRning ham tortilishi masalasiga aylanib ketdi. Bu vaqtda Buxoro va Xorazm respublikalari huquqiy jihatdan hali mustaqil suveren davlatlar hisoblanardi. Oʻrta Osiyo hududini

milliy chegaralash masalasi Moskvada to'liq qo'llab-quvvatlandi. Chunki bu vaqtga kelib Markazning partiya rahbariyatida chegaralash masalasi aniq ifodalangan asosiy maqsadga aylanib qolgan edi.

Milliy-hududiy chegaralanish masalasi o'rta qo'yilgach mahalliy elitaning bolsheviklarga turli muammolar yuzasidan e'tirozlari boshlangan. Bu kabi e'tirozlarga Markazdan kelgan hamda mahalliy kommunistlar o'zlarining munosabatlarini bildirganlar. 1920-yilning yanvarida bo'lib o'tgan RKP(b)ning 3-o'lka musulmon konferensiyasida Turar Risqulov o'zining ma'ruzasi bilan chiqib, Turkiston aholisini milliy jihatdan o'zbek, turkman, tojik, qirg'iz va shunga o'xshagan millatlarga ajratish – bu sun'iy ajratishdir deb ta'kidlaydi[4]. U Turkiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti O'lka musulmon byurosini boshqarar ekan, mahalliy mehnatkashlar orasida partiya ishlarini uyushtirish, ziyolilarni hukumat ishlariga jalb qilish, mahalliy kadrlar tayyorlash ishlarida jonbozlik ko'rsatgan edi. T.Risqulovning mintaqa yaxlitligini saqlab qolishga qilgan hatti-harakati bolsheviklar uchun kechirilmas ish bo'ldi. Bolsheviklar nazdidagi jiddiy xatolardan biri millatchilik ruhida bo'lgan "Mustaqil Turk Respublikasi"ni tuzish g'oyasining ko'tarib chiqilishi bo'ldi. Sovet davri adabiyotlarida qayd etilishicha, uning bu fikrlari partiyaning milliy siyosatiga qarama-qarshi edi. 1920-yil may oyida T.Risqulov bolsheviklar dohiysi V.I.Lenin qabulida bo'ladi. T.Risqulov keyinchalik o'zining adashgani, siyosiy va g'oyaviy yetukligi, siyosiy kurash tajribasi yetarli bo'lmaganligi va u yo'l qo'ygan xatoliklar to'g'risida bunday deb yozgan edi: "1920-yilga kelib men bir qancha siyosiy xatoliklar qildim... Mening xatoim asosan o'sha vaqtda menda bo'lgan millatchilik og'machiligida edi... biz milliy dohiylar bo'lishni istardik, internatsional vazifalarni unutib, milliy shiorlarga berilib ketdik... mehnatkash ommaning uyg'ongan ongini sinfiy yo'lga yo'naltirish o'rniga milliy muhit tazyiqida biz bu harakatdan millatchilik shiorlarini amalga oshirish uchun foydalanishga harakat qildik" [5].

T.Risqulov Moskvaga chaqirilib olingan paytda uning maslakdosh do'stlari alohida nazorat ostiga olingan va ularga nisbatan qattiq tazyiqlar o'tkazilgan. Musulmonlar byurosi a'zosi Munavvar Qori Abdurashidxonov o'z xotiralarida ushbu holni quydagicha eslaydi: "Bir guruh kommunistlar "risqulovchilar" deb nomlanib, quvg'in qilina boshlandi. Komandirovkaga yuborish bahonasida ishdan bo'shatish kuchaydi. Men bu vaqtda Maorif xalq komissarligi a'zosi va Turk bo'limi raisi bo'lib ishlardim. Boshqalar qatori, men ham ishdan olindim..." [6].

1924-yil 25-fevralda bu masala Buxoro Kompartiyasi MK Plenumi muhokamasiga qo'yildi. Plenumda Fayzulla Xo'jayev ma'ruza qildi. Plenumda asos sifatida qabul qilingan BKP MKning tezislari BKP MK komissiyasi tomonidan qarab chiqildi va qayta ishlandi, uning Ijroya byurosi O'rta Osiyoning milliy chegaralanishi kompartiya e'lon qilgan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini hayotga tadbiq etishning muhim bosqichi sifatida talqin etib, tezislarga qayd etilganidek, chegaralanishning sxemasini quyidagicha taklif etdi: O'rta Osiyoda O'zbekiston, Turkmaniston ittifoqdosh respublikalarini, O'zbekiston Respublikasi tarkibida avtonom Tojikiston viloyatini tuzish, shuningdek, Turkistonning qozoq tumanlarini Qozog'iston Respublikasiga birlashtirish. Alohida bandda yangi tashkil etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "ixtiyoriy asosda" SSSR tarkibiga kirishi aytib o'tildi [7].

Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasining raisi muovini Sultonbek Xo'janov O'rta Osiyoni milliy jumhuriyatlarga bo'lish masalasi sovet hukumatining millatlarni ozod qiladigan milliy siyosati ekanligi xususida o'zining fikrlarini matbuotda e'lon qildi. U bo'linish masalasini millatlar o'rtasida yaxshi aloqa va do'stlik munosabatini ta'min qilishiga umid bog'ladi va shunday degan edi: "Turkiston mehnatkashlarning rus mustamlakachilariga qarshi ozodlik harakati o'zining ta'biy yo'li bilan yerli xalqlar o'rtasida bo'lgan bir-biroviga qarshi manfaatlar millatchilik shakliga ko'b kuchlik bir millatning kuchsiz millatga qarshi yo'nalishi kabi bir tusga kirdi (12-firqa qurultoyi aytganidek) milliy jumhuriyatlarga ajratish yerlik shovinizm va shuningdek ba'zi jumhuriyatlar bilan kurashishga osongina yo'l ochadi, buning natijasida har millatning ma'orif va madaniyati ozod ravishda rivoj topib va iqtisodiy ishlari yuksaladir" [8].

O'sh xalqi o'rtasida milliy chegaralanish to'g'risida har xil xabarlar bo'lgach, 1924-yil 18-avgustda eski shahar firqa a'zolarining yalpi majlisi chaqiriladi. Majlisda partiya a'zosi Muxtorjon Alimov bu masala borasida o'zini fikrini bildiradi. Milliy chegaralanish paytida har bir millatning

urf-odati, iqtisodiy tomoni va shu yo‘l bilan orqada qolgan quvvatsiz millatlarning manfaatlarini ham e‘tiborga olish lozimligi haqida gapiradi. Turli millatlar o‘rtasida boshlanadigan munosabat vaqtida har ikki tarafni barobar huquqiy, iqtisodiy va brodarlik ruhida orqada qolgan millatlarning ehtiyojlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Shuning bilan birga firqa a‘zolari va Lenin yoshlari ustiga majlislarda va suhbatlarda Turkistonni milliylashtirish to‘g‘risida markaziy firqa qo‘mitasining ko‘rsatgan yo‘lda tashviqotda bo‘lish vazifalari yuklatilgan [9].

Milliy jumhuriyatlarga bo‘lingandan keyin mayda millat maktablarining holi qanday bo‘lishi ham diqqat markazida bo‘ldi. Agar hozirg‘i kunda yana bir jumhuriyatning ichining bir necha millarlar yashag‘onda ularning madaniyat ishlariga katta ahamiyat berilib ularning ilgari ketishlariga zo‘r e‘tibor etilgan bo‘lsa, kelgusida bo‘ladurg‘on sho‘ro jumhuriyatlarida ayrim mayda millatlarning madaniy ishlariga hech shubxasiz yanada zo‘rroq e‘tibor berilur. O‘rta Osiyoning milliy jumhuriyatlarga bo‘linishi bilan oliy bilim yurtlari masalasi ayrim ahamiyat qaratadir. O‘rta Osiyo humhuriyatlarining madaniy va maorif ishlariga xizmat qiladurg‘on O‘rta Osiyo davlat dorilfununi, O‘rta Osiyo kommunistlar dorilfununi va boshqa shunday yuqori darajadagi bilim yurtlarining bundan O‘rta Osiyoniki bo‘lib, qolishlari albatta hech shubha yo‘qdir [10].

O‘zbek siyosiy elitasi ichida yerli xotin-qizlar ko‘chilikni tashkil etmagan. Biroq bolsheviklar mahalliy millat vakillariga mansub xotin-qizlarni ham sovet boshqaruviga tortishga harakat qilganlar. Xotin-qizlarni sovetlarga, madaniy oqartruv muassasalariga jalb qilgan holda ularni faol boshqaruvga tortish masalasini kun tartibiga qo‘yganlar. Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish sovet milliy siyosatining muhim bo‘g‘ini hisoblangan. Shuning uchun xotin-qizlarni turli yig‘ilishlarida Turkistonni milliy-hududiy chegaralanishi masalasi muhokama qilingan. Jumladan, 1924-yilning avgustida Toshkent shahrida xotin-qizlar to‘lanib, ushbu masalani muhokama etganlar. Toshkent xotin qizlar bo‘limining mudirasi G‘oibjonova sharq xotin-qizlari siyosiy va iqtisodiy huquqlari haqida gapirib, quyidagicha qaror qabul qilinganligini bildirgan:

1) Milliy jumhuriyatlar tuzilishini tabrik qilamiz.

2) Sho‘ro hokimiyati barcha mehnatkashlar va mazlumlarning bir mudofaachisi va sharq xotin-qizlariga ozodlik beradigan birdan-bir hokimiyatdir.

3) Yangi tuziladigan jumhuriyatlarning umum jumhuriyatlar ittifoqiga a‘zo bo‘lib kirishlari lozim. Dushmanlar qarshi kurashishda mehnatkashlarning ittifoqigina uning uchun mahkam devordir.

4) Yig‘ilish lozim topadiki, har bir millatning birinchi qurultoylaridan boshlab, xotin-qizlarni ozod qilish masalasi qo‘yilsin.

5) O‘rta Osiyoning barcha xotin-qizlari yangi tuziladigan jumhuriyatlarning hukumat idoralariga saylovlarda yaqindan ishtirok qilsinlar [11].

Turkistonni milliy hududiy chegaralash jarayoni ketayotgan bir paytda milliy mojarolar va hudud talashlar ham matbuotda yoritildi. Milliy ziyolilardan biri Ismoilzoda o‘zbek-qozoq millatlari o‘rtasida ba‘zi kelishmovchiliklarni tugatish to‘g‘risida gapirib shunday deydi “Ikki og‘a-ini millatni bir-biroviga qarshi qiladigan afandilarni biz faqat teskarichilar – deyishdan boshqa bir narsa ayta olmaymiz” [12].

Shunday qilib, O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o‘tkazilishi natijasida sobiq Turkiston ASSR, BXSRLari o‘rnida O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (O‘zbekiston SSR tarkibida), Qoraqirg‘iz (Qirg‘iz) viloyati (RSFSR tarkibida) va Qoraqalpog‘iston Avtonom oblasti (Qozog‘iston ASSR tarkibida) tashkil etildi.

1925-yil 13-17-fevral kunlari Buxoro shahrida Butuno‘zbek sovetlarining I s‘ezdi chaqirildi. 13 fevral kuni s‘ezdning 1-yig‘ilishida kommunistik fraksiya tomonidan 61 kishidan iborat Prezidium tarkibi saylandi (a‘zolarining 15 nafari yevropa millatiga mansub bo‘lgan). 16-fevral kuni I s‘ezdning 4-yig‘ilishida bolsheviklar fraksiyasi taklifi bilan Markaziy Ijroiya Komitet a‘zoliciga nomzodlarning 160 kishidan iborat tarkibi tasdiqlandi[13]. O‘zSSR MIK a‘zolarining 40 nafari yevropalik va 120 nafari mahalliy millat vakillaridan iborat bo‘ldi. Butuno‘zbek sovetlarining I s‘ezdida delegatlar soni 598 nafar, shundan 573 nafari erkak, 25 nafari ayol bo‘lgan[14]. Delegatlar umumiy sonining milliy tarkibi quyidagicha edi: ruslar – 65 nafar, qirg‘izlar – 5 nafar, o‘zbeklar – 404 nafar, tojiklar – 66 nafar, Buxoro yahudiysi – 1 nafar, boshqa millatlar – 47 nafar [15].

1925 yil fevralda Buxoro shahrida chaqirilgan Butuno'zbek sovetlarning birinchi s'ezdi "O'zbekiston SSR ni tuzish to'g'risidagi deklaratsiya"ni[16] qabul qildi. Bu deklaratsiyada shunday deyilgan edi: "Sovet hokimiyatining sharqdagi avangard posti bo'lgan O'rta Osiyoda, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish maqsadi bilan sobiq Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari hududlaridagi o'zbek yerlarining qishloq va ovullari mehnatkashlar ommasi birinchi sovetlar s'ezdi orqali bu xalqning tarixida birinchi marta ishchi va dehqonlar O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi ta'sis qilinganini e'lon qiladilar"[17].

Xulosalar: Turkistonni milliy-hududiy chegaralash masalasi o'rta qo'yilgach mahalliy elitaning bolsheviklarga turli muammolar yuzasidan e'tirozlari boshlangan edi. Milliy yetakchilardan biri Turar Risqulov Turkiston aholisini milliy jihatdan o'zbek, turkman, tojik, qirg'iz va shunga o'xshagan millatlarga ajratish – bu sun'iy ajratishdir deb ta'kidlaydi. U mintaqa yaxlitligini saqlab qolishga qilgan hatti-harakati bolsheviklar uchun kechirilmas ish bo'ldi. Bolsheviklar nazdidagi jiddiy xatolardan biri millatchilik ruhida bo'lgan "Mustaqil Turk Respublikasi"ni tuzish g'oyasining ko'tarib chiqilishi bo'ldi. Sovet davri adabiyotlarida qayd etilishicha, uning bu fikrlari partiyaning milliy siyosatiga qarama-qarshi bo'ldi. Shu tariqa Turkiston mintaqasi bolsheviklar tomonidan bo'laklarga bo'linib, sovet namunasidagi respublikalarga aylantirildi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Ўрта Осиёнинг инқилобий маркази ўзининг қатъий сўзини айтди // "Туркистон". 1924 йил, 28 август. 339-сон. (The revolutionary center of Central Asia has made its firm statement // "Turkestan". 1924, August 28. No. 339.)
2. Агзамходжаев А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Тошкент: "Фан", 1971.– С.80. (Agzamkhodjaev A. Education and development of the Uzbek SSR. – Tashkent: "Fan", 1971. - P. 80.)
3. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Биринчи жилд. (1900-1939). – Тошкент: "Фан", 2024. – Б.544. (Rajabov K. Uzbekistan in the XX century. First volume. (1900-1939). – Tashkent: "Fan", 2024. - P. 544.)
4. Назаров М. Ўзбекистонда совет ҳокимиятини мустаҳкамлаш учун кураш (1919-1920 йиллар). – Тошкент: "Қизил Ўзбекистон", "Правда Востока" ва "Ўзбекистони Сурх" бирлашган нашриёти, 1954. – Б.47-48. (Nazarov M. The struggle to strengthen Soviet power in Uzbekistan (1919-1920). – Tashkent: "Kizil Uzbekistan", "Pravda Vostoka" and "Uzbekistoni Surkh" joint publishing house, 1954. – P. 47-48.)
5. Ҳидояттов Г.А. Тарих ва мафкуравий кураш. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1988. – Б.177. (Khidoyatov G.A. History and ideological struggle. – Tashkent: "Uqituvchi", 1988. – P. 177.)
6. Ҳайдаров М. 20-йилларда миллий раҳбарларнинг марказлаштириш сиёсатига қарши кураши / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Учинчи китоб. – Тошкент: "О'zbekiston", 2012. – Б.27. (Khaydarov M. The struggle of national leaders against the policy of centralization in the 1920s / Unknown pages of history. Third book. – Tashkent: "Uzbekistan", 2012. – P.27.)
7. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Биринчи жилд. (1900-1939). – Тошкент: "Фан", 2024. – Б.548. (Rajabov K. Uzbekistan in the 20th century. Volume one. (1900-1939). – Tashkent: "Fan", 2024. – P.548.)
8. Ўрта Осиёнинг миллий жумҳуриятларга бўлиниши тўғрисида музоҳабалар. Туркистон Марказий ижроия қўмитасининг раиси муовини Хўжанов // "Туркистон". 1924 йил 18 август. 331-сон. (Interviews on the division of Central Asia into national republics. Deputy Chairman of the Central Executive Committee of Turkestan Khozhanov // "Turkestan". August 18, 1924. No. 331.)
9. Қамчинбек. Миллий чегараланиш масаласи ва Ўш коммунистлари // Туркистон. 1924 йил 28 август. 339-сон. (Kamchinbek. The issue of national demarcation and the Osh communists // Turkestan. August 28, 1924. No. 339.)

10. Ўрта Осиёнинг миллий жумҳуриятларга бўлиниши муносабати билан. Халқ маориф комиссарлигининг ноибى ўртоқ Гажухив // Туркистон. 1924 йил 28 август. 339-сон. (In connection with the division of Central Asia into national republics. Comrade Gajukhiv, Deputy Chairman of the People's Commissariat of Education // Turkestan. August 28, 1924. No. 339.)

11. Ўрта Осиёнинг миллий жумҳуриятларга бўлиниши муносабати билан. Миллий чегараланиш масаласи атрофида хотин кизларимиз // Туркистон. 1924 йил 28 август. 339-сон. (In connection with the division of Central Asia into national republics. Our women and girls on the issue of national demarcation // Turkestan. August 28, 1924. No. 339.)

12. Исмоилзода. Ўрта Осиёни чегаралаш теварагида // Туркистон. 1924 йил 2 август. 319-сон. (Ismailzoda. On the issue of demarcation of Central Asia // Turkestan. August 2, 1924. No. 319.)

13. O'zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2384-ish, 19-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-86, List 1, File 2384, Sheet 19.)

14. O'zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2384-ish, 149-varaq. (Uzbekistan NA, R-86-fund, 1st list, case 2384, sheet 149.)

15. O'zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2384-ish, 22-varaq. (Uzbekistan NA, R-86-fund, 1st list, case 2384, sheet 22.)

16. O'zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2388-ish, 77-79-varaqlar. (Uzbekistan NA, R-86-fund, 1st list, case 2388, sheets 77-79.)

17. O'zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2388-ish, 78-varaq. (Uzbekistan NA, R-86-fund, 1st list, case 2388, sheet 78.)

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 12

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000